


PEDAGOGIK MAHORAT

MS
2021



ISSN 2181-6883

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

**MAXSUS SON
(2021-yil, dekabr)**

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2021

MUNDARIJA

Alijon HAMROEV. Modeling activities of teachers when designing creative activities of students	7
Matlab TILAVOVA. Ta’lim jarayonida gender tenglik va farqlarni hisobga olishning pedagogik va psixologik imkoniyatlari.....	13
G’ulom SAYFULLAYEV, M. S.SAFAROVA, I. S.TEMIROVA. Markaziy osiyolik allomalarining tabiat haqidagi asarlaridan boshlang‘ich sinf tabiiy fanlarni o‘qitishda foydalanish	18
Fayzullo QOSIMOV, Mayluda QOSIMOVA. Ikki sonning yig‘indisi (yoki ayirmasi) va karrali nisbatiga ko‘ra shu sonlarni topishga doir masalalar	20
Fayzullo QOSIMOV, Mayluda QOSIMOVA. Ko‘paytirish va bo‘lishga doir mashqlar tizimini tuzish bo‘yicha bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun usuliy tavsiyalar.....	24
Hilola SAFAROVA, Nigora SAFAROVA. Navoiy jonga muhtoj ermas, ammo.....	28
Nigora ADIZOVA. Qiziqmachoqlarda hayot sabog‘ining o‘ziga xos talqini.....	30
Nigora ADIZOVA, Hilola XUDOYBERDIYEVA. “Qiziqmachoq” atamasining mohiyati va janriy xususiyatlari	33
Mohinur SAIDOVA. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisinining masofaviy ta’limdan foydalanishining pedagogik va didaktik imkoniyatlari	38
Mohinur SAIDOVA, Niginabonu IDIYEVA. Boshlang‘ich sinf matematika darslarida vaqt tushunchasi bilan tanishtirish	42
Nodira ADIZOVA. Toponimlar tarkibida topoasos, topoformant hamda indikator tushunchalari (Buxoro tumani misolida).....	47
Nodira ADIZOVA, Dilsora TOSHPO‘LATובה. Buxoro tumani toponimlarining tasnifi masalasi	49
Shoira BOBOYEVA. Metodikada ona tili ta’limini modellashtirishga innovatsion yondashuv	51
Халима АРИПОВА, Шоира БАБАЕВА, Наталья РОЗИКОВА. С.Н.Иванов – как поэт-переводчик восточной поэзии	58
Шоира БАБАЕВА, Анастасия АЛИМОВА. Влияние международного исследования pirls на развитие речи и грамотность чтения младшего школьника	64
Шоира БАБАЕВА, Насиба ФАЗЫЛОВА. Развитие речи младших школьников с использованием различных словарей	68
Mehrinish HAKIMOVA. Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda matematik tasavvurlarni shallantirishda uzviylikni ta’minalashga doir metodik ta’mnot.....	72
Саида ГАФАРОВА, Феруза ХАЛИЛОВА. “Прокариотлар морфологияси ва хужайра тузилиши” мавзусини ўқитища педагогик технологиялардан фойдаланиш самарадорлиги	79
Феруза ХАЛИЛОВА, Шодия НУРМАМАТОВА, Нилуфар ОБЛОҚУЛОВА. Преподавание биологии в школе	86
Shoira QURBONOVA. Texnologiya darsi jarayonida talabalarning mehnat tarbiyasini shakllantirishda interfaol metodlardan foydalanish	89
Gavhar SAIDOVA. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida uzunlik haqida tasavvurlarni shakllanritish, uzunliklarni o‘lchash malakalarini hosil qilish	92
Mashxura YULDASHEVA. Tibbiy pedagogik yo‘nalish talabalarida milliy an’analar asosida bag‘rikenglikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan jarayonning mazmuni	94
Mashxura YULDASHEVA. Tibbiy pedagogik yo‘nalish talabalarida milliy an’analar asosida bag‘rikenglikni rivojlantirishning shakl, usul va metodlari	97
Yulduz Pulatova. Psychological characteristics of speech cultivation by working on the text in primary school reading lessons	101
Mahfuza SADULLOYEVA, Maxtobxon XAYRIYEVA. Maktab o‘quvchilari orasida deviant xulq-atvor sabablari, shakllari va korreksion ishlari	107
Adiba BAHRONOVA. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini o‘quvchilarni axloqiy tarbiyalashga tayyorlashda darsdan tashqari ish shakllari	110
Saodat QODIROVA. Qadimiylar maqollar	113
Dilshod DAVRONOV. Zamon bilan hamnafas yashagan alloma	115
Yulduz NUROVA. Etnografiya va etnografiya munosabati	118
Malika XAYDAROVA. Boshlang‘ich ta’lim jarayoniga individual yondashuvni tatbiq etishning pedagogik imkoniyatlari	122
Nodirabegim RAJABOVA. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida o‘quvchilarga figura yuzi tushunchasini o‘rgatishda tadqiqotchilik faoliyatini takomillashtirish.....	125

Mahfuza SADULLOYEVA

Buxoro davlat universiteti
boshlang‘ich metodika kafedrasи
o‘qituvchisi

Maxtobxon XAYRIYEVA

Buxoro davlat universiteti
pedagogika va psixologiya yo‘nalishi
4-bosqich talabasi,
32-umumta’lim maktab amaliyotchi
psixologи

MAKTAB O‘QUVCHILARI ORASIDA DEVIANT XULQ-ATVOR SABABLARI, SHAKLLARI VA KORREKSION ISHLAR

Mazkur maqolada deviant xulq tushunchasi, uning namoyon bo‘lish shakllari, yuzaga keltiruvchi bir nechta omillar yoritilgan. Shuningdek, xulqi og‘ishganlikning oldini olishda ta’lim tizimi, pedagog xodimlar, ota-onaning roli hamda bir qancha samarali usullar o‘z ifodasini topgan.

Kalit so‘zlar: deviant xulq, deviatsiya, ijtimoiylashuv, dezadaptatsiya, yetuklik, o‘smirlar, psixologik xususiyatlar, o‘z-o‘zini anglash, jamiyat, oilaviy muhit, biologik omillar, xulqi og‘ishganlik, korreksiya, kasb-hunarga yo‘naltirish, antisotsial xulq.

В этой статье рассматривается понятие девиантного поведения, его проявления и несколько факторов. Также отражены система образования, педагоги, роль родителей и ряд эффективных способов предотвращения поведенческих расстройств.

Ключевые слова: девиантное поведение, девиация, социализация, дезадаптация, зрелость, подростковый возраст, психологические характеристики, самосознание, общество, семейная среда, биологические факторы, отклонение поведения, коррекция, перенаправление профессии, антисоциальное поведение.

This article discusses the concept of deviant behavior, its manifestations, and several factors. The education system, educators, the role of parents, and a number of effective ways to prevent behavioral disorders are also reflected.

Key words: deviant behavior, deviation, socialization, maladaptation, maturity, adolescence, psychological characteristics, self-awareness, society, family environment, biological factors, behavioral deviation, correction, occupation redirection, antisocial behavior.

Kirish. XX-asrning oxiri va XXI asrning boshlarida yuz bergan iqtisodiy, ijtimoiy va ma’daniy hayotdagi o‘zgarishlar jamiyat bilan to‘laqonli muloqot qilishga layoqatli shaxsnинг rivojlanishini va uning umuminsoniy qadriyatlarga muvofiq shaxsiy sifatlarining rivojlanishini to‘laqonli ta’minlay olmaganligi sababli o‘smirlarda deviant xulqning keskin rivojlanishiga sabab bo‘ldi.

Asosiy qism. O‘smirlardagi deviant xulqni asosiy mavzu sifatida tanlanishiga sabab sifatida shuni aytish mumkinki, bu davrda o‘smirlardagi xulqi o‘g‘ishganlik hamda dezadaptatsiya muammosi borgan sari kuchayish xususiyatiga ega bo‘lganligi sababli ham o‘ta dolzarbdir. Yana shuni ta’kidlash joizki, o‘smirlar davri har bir shaxsnинг jamiyatga, boshqa insonlarga hamda o‘ziga bo‘lgan munosabati shakllanadigan, shuningdek ijtimoiy munosabatlar quradigan davri. Bu davrda boshqa psixologik xususiyatlar bilan bir qatorda o‘z-o‘zini anglash rivojlanadi, hamda o‘z xohishlarini bildirish istagi namoyon bo‘ladi. O‘smirning xulq-atvori, qadriyatlar tizimi va oiladagi muhit, undan olgan ta’lim tarbiyaning bevosita ta’siri ostida shakllanadigan o‘ta muhim davr hisoblanadi.

Insonning ijtimoiylashuvi va shaxs sifatida shakllanishi faqatgina boshqa insonlar o‘rtasida amalga oshadi. Agarda shaxs insoniy munosabatlardan ajratiladigan bo‘lsa, u holda unda hayvoniy xislatlar ustuvorlik kasb etishi ehtimoli juda yuqori ekanligini, bundan bir necha asr ilgari yashab ijod qilgan buyuk allomalarimizning fikrlari ham tasdiqlaydi, jumladan Abu Nasr Forobiyning bu boradagi fikrlari diqqatga sazovordir: “Har bir inson o‘z tabiatini bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko‘p narsalarga muhtoj bo‘ladi, u bir o‘zi bunday narsalarni qo‘lga kiritma olmaydi, ularga ega bo‘lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug‘iladi” [1].

Deviant xulq-atvor jamiyatda o‘rnatalgan axloq me’yorlariga mos kelmaydigan faoliyat va xattiharakat, ijtimoiy hodisa bo‘lib giyohvandlik, ichkilikbozlik, o‘z joniga qasd qilish, yolg‘onchilik va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Deviatsianing bir nechta boshqa turlari odamlarning o‘zaro munosabatlari buzilshi asosida yuzaga kelib, jamiyatga jiddiy muammolar tug‘dirmaydi va u ishtirokchilarning o‘zlarini tomonidan boshqariladi.

O‘quvchilar orasida deviant xulq-atvor sabablari:

O'smirlar ko'p holatlarda atrofidagi yaqin insonlari, jumladan, ota-onasi yoki do'stlariga o'z "men"ligini anglatish, o'zligini ko'rsatish maqsadida ijobiy sifatlari, xatti-harakarlari va katta-yu kichik natijalari bilan e'tiborni o'ziga qaratishga harakat qiladi. Agarda bu orqali maqsadiga yetolmasa, nojo'ya harakatlar orqali o'z ta'sirini o'tkazish va shu orqali atrofdagilarni e'tiborini qozonishga harakat qiladi.

Oilaviy muhit. Bolaning tug'ilib tarbiyalanayotgan uyida oilaning ijtimoiy-iqtisodiy holati, ota-onas munosabatlarining qoniqarli emasligi, ularning ruhiy yoki axloqiy nosog'lom bo'lishi, ajrim holatlari, bolaning xatti-harakatlari ustidan nazoratning yo'qligi deviant xatti-harakatlarga duchor qiladi.

Biologik omillar. Bunga psixopat (irsiy antisotsial xatti-harakatlar), miya shikastlanishi kabi genetik omillar kiradi. Diqqat yetishmasligi giperaktivligi buzilishi (DEHB) - bu diqqat muammolarining mavjudligi bilan tavsiflanadigan, xulq-atvori rivojlanishining neyron kasalligi bo'lib, deviat xulq-atvorga sabab bo'luvchi faktorlardan biridir.

Ommaviy axborot vositalarining ta'siri. Yomon teledasturlar, axloqsiz jurnallar, shuningdek, pornografik filmlar va materiallarga ta'sir qilish o'quvchilarni axloqsiz xatti-harakatlarga jalb qiladi. Kento (2015) kuzatganidek, ommaviy axborot vositalarining ta'siri bolalarining ijobiy taassurotlariga qaraganda, ularning xarakterini rivojlantirishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Talabalar yoki o'quvchilar yaxshi shaxsiy, kasbiy, ta'lim va ijtimoiy talablarga moslasha olmaydilar [2].

Tengdoshlarning bosimi. Bu shaxs o'zini o'zi tanigan guruhni anglatadi. Tengdoshlarning bosimi ko'pchilik o'quvchilarning guruh me'yorlariga mos kelishi uchun odamning o'z munosabatini, qadriyatlarini yoki xulq-atvorini o'zgartirishga undashda tengdoshlar guruhining ta'sirini bildiradi va tengdoshlarining ta'siri tufayli nojo'ya harakatlarni amalga oshirish bilan tavsiflanadi.

Deviant xulqqa moyillik quyidagi belgilari bilan tavsiflanadi:

- shaxsiy yoki maktab muammolari bilan bog'liq doimiy qo'rquv va negativ hissiyotlar;
- agressiya;
- kayfiyatning ko'pincha noxush bo'lishi yoki depressiya;
- darslarni sifatlari o'zlashtirishdagi layoqatsizlik;
- oila a'zolari, tengdoshlari, shuningdek, ustozlari bilan qoniqarli va erkin o'zaro munosabatlarni o'rnata olmaslik;
- o'z imkoniyatlariga adekvat baho berolmaslik.

Muhokamalar va natijalar. Xulqi og'ishganlik holatlarini korreksiyalashda ta'lim tizimida islohotlarning hamda pedagogning roli. Deviatsiya va ijobiy xulq-atvor o'rtasidagi farqlarni qanday aniqlash va oldini olish choralar borasida munozara va muzokaralar, shuningdek, alohida dars soatlari va ma'ruzalar tashkillashtirilishi, jamiyatda alohida hurmat-ehtiromga sazovor insonlar ishtirokida ko'proq suhbat va uchrashuvlar tashkil etishi, ta'lim dargohida psixologik sog'lom muhitni yaratish borasida amaliyotchi psixologlar bilan bir qatorda inspektor-psixologlarni ham ko'proq jalb etish, qo'llab-quvvatlash va davomli chora-tadbirlarni amalga oshirishda kabi ishlari juda katta ahamiyatga ega. Umumiyo o'rtalama muassasalarida o'quvchilarni 7-sinfdan boshlab kasbga yo'naltirish ishlarini amalga oshirish, ularda kasbiy tayyorgarlikni tashkil etish, yuqori sinflarda zamonaviy kasb-hunar egallashlari uchun tegishli shart-sharoitlar yaratish hamda har tomonlama yetuk malakali mutaxassis bo'lib yetishishlarini ta'minlash maqsadida maktablarda oktabr oyidan boshlab aprelgacha har oyda muayyan kasb tiplariga tegishli tadbirlarni tashkil etishi barcha o'quvchilar, ayniqsa, deviant xulqqa moyil bo'lganlarni kasb-hunarga yo'naltirishda, qiziqishi va layoqatini aniqlashda, o'zini-o'zi band qilish kabi mehnat shakllarini rivojlantirishda o'z samarasini beryapti. Bundan tashqari, o'quvchilar uchun turli xil sport to'garaklarining tashkil etilganligi va muntazam jalb qilinishi, jismoniy faollik orqali tanani chiniqtirish, agressiyani kamaytirishda samarali usullardan biri sifatida e'tirof etish mumkin. Qolaversa, bunday chora-tadbirlar o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish barobarida ularning xulq-atvordagi salbiy o'zgarishlarni korreksiyalashda o'zining bevosita ijobiy ta'sini ko'rsatmoqda

O'qituvchi o'smir yoshdagi bolaning psixologik xususiyatlari, bolaning o'z-o'zini hurmat qilishga o'rgatish tuyg'usini shakllantirish muhim ekanligini hisobga olib, o'quvchining sinf va jamoadagi obro'sini ko'tarish yo'llarini izlashi kerak. Buning uchun o'qituvchi bolaning u yoki bu sohadagi yutuqlarini ko'pchilik tengdoshlari orasida e'tirof etishi, shuningdek, uning ayrim kamchilik va xatolarini yo'qotishda yuksak pedagogik mahorat va donolik bilan ish tutib, ularni darrov ko'pchilikka oshkor qilmay, o'smir bilan suhbatlashib, uning kuchi va imkoniyatlariga ishonishini amalda ko'rsatishi bilan o'smirda shakllanib kelayotgan "katta kishi" bo'lib qolganlik tuyg'usini hurmat qilishini namoyon etadi. Bunday qo'llab-quvvatlashning kerakligini yaxshi his qilgan o'quvchi esa beixtiyor o'qituvchining ta'siriga beriladi, chunki ustoz o'smirning munosabatlarini yo'nga qo'yishda uning uchun zarur kishisiga aylanib qoladi.


Deviant xulq-atvorni yaxshilashda ota-onalarning o'rni

Farzand tarbiyasida ota-onalarning o'rni beqiyos bo'lib, kelajak avlodni har tomonlama sog'lom bo'lib voyaga yetkazishda avvalo ularning o'zлari oliv tarbiyalangan bo'lishlari va hamisha o'z-o'zlarini isloh qilib borishlari talab etiladi. Zero, mamlakatning ertangi kuni shu yoshlarning qo'lidadir. Jamiyatimizning asosiy bo'g'ini hisoblangan oilada ijtimoiy psixologik sog'lom muhitni yaratish uchun zaruriy chora-tadbirlarni amalga oshirish, xususan, ko'plab ajrimlarga, notich oilalar-u noqobil, ya'ni deviant xulqqa ega farzandlarning ulg'ayishiha sabab bo'layotgan ma'naviy qashshoqliknинг oldini olish o'ta muhim sanaladi. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, ilm-ma'rifatli bo'lib voyaga yetishlari yo'lida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish, xususan oliv ta'limga jalb qilish, kelgusida ularning ham ziyoli, ruhiy va jismoniy sog'lom farzandlarni ulg'aytirishlarida dasturil amal bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, ota-onalar farzandlarini doimiy nazorat qilib, kundalik bajarayotgan ishlari va atrofidagi do'stlaridan xabardor bo'lishi, ijtimoiy tarmoqlardan to'g'ri foydalanish madaniyatini shakllantirish hamda hamisha ogoh bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Xulosa. Deviatsiyaning bosh negizi bo'lgan notinch oilalarda sog'lom psixologik muhitni yaratish borasida muntazam chora-tadbirlarni amalga oshirish, ilm-marifatni keng targ'ib qilish orqali ma'naviy qashshoqlikka barham berish va shuning asnosida ziyoli qatlamlarni kengaytirib, yetuk ma'rifatli kelajak avlodni voyaga yetkazish muammoning eng to'g'ri va samarali yechimlaridan biridir.

Adabiyotlar

1. Psychological and Pedagogical Conditions for the Prevention of Deviant Behavior among Adolescents <https://files.eric.ed.gov/fulltext/EJ1117749.pdf>
2. Deviant Behaviour in Secondary School and its Impact on Students' Learning.
3. Deviant xulq-atvor turlari.
<http://staff.tiame.uz/storage/users/423/presentations/0KeDEV0tiZeuuz7FZ4rOHvbO6cw64pMahzynE8Kw>.
4. Counselling Strategies for Curbing Deviant Behaviour in Our Educational System
5. <http://teoriya.ru/en/node/877> Prevention of interrelated, asocial **behavior** in children in special (**correctional**) **educational** institutions of the Republic of Chuvash.
6. <https://core.ac.uk/download/pdf/228574826.pdf> Deviant Behaviour in Secondary School and its Impact
7. Zyubin L.M. Tarbiyasi qiyin o'quvchilar bilan olib boriladigan o'quv-tarbiyaviy ishlar. -T.: "O'qituvchi", 1997 y.
- 8). Кернберг О. Агрессия при расстройстве личности. -М.: Независимая фирма "Класс", 1998 г.
9. Kamilova N.G. Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi. -T.: TDPU, 2013.
10. <https://infourok.ru/user/5083923/blog/antisotsial-xulq-174669.html>. Antisotsial xulq



Buxoro davlat universiteti muassisligidagi
“PEDAGOGIK MAHORAT”
ilmiy-nazariy va metodik jurnali
barcha ta’lim muassasalarini
hamkorlikka chorlaydi.

Pedagoglarning sevimli nashriga aylanib ulgurgan “Pedagogik mahorat” jurnali
maktab, kollej, institut va universitet pedagogik jamoasiga muhim qo’llanma
sifatida xizmat qilishi shubhasiz.

Mualliflar uchun eslatib o’tamiz, maqola qo’lyozmalari universitet
tahriri-nashriyot bo’limida qabul qilinadi.

Manzilimiz: Buxoro shahri, M.Iqbol ko’chasi 11-uy
Buxoro davlat universiteti, 1-bino 2-qavat, 208-xona

Tahririyat rekvizitlari:

Moliya vazirligi g’aznachiligi

23402000000100001010

MB BB XKKM Toshkent sh. MFO 00014 INN 201504275

BuxDU 400110860064017950100079002

Pedagogik mahorat: rivojlanamiz va rivojlantiramiz!

**PEDAGOGIK
MAHORAT**

**Ilmiy-nazariy va metodik
jurnal**

2021-yil maxsuus son

**2001-yil iyul oyidan
chiqa boshlagan.**

OBUNA INDEKSI: 3070

Buxoro davlat universiteti nashri

Jurnal oliv o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o‘qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo‘ljallangan.

Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.

Nashr uchun mas’ul:

Aljon HAMROYEV.

Musahhih: Muhiddin BAFAYEV.

Muharrir: O‘g‘iljon OLLOQOVA

Jurnal tahririyat kompyuterida
sahifalandi. Chop etish sifati uchun
bosmaxona javobgar.

Bosishga ruxsat etildi 10.01.2022

Bosmaxonaga topshirish vaqtி

14.01.2022

Qog’oz bichimi: 60x84. 1/8

Tezkor bosma usulda bosildi.

Shartli bosma tabog‘i – 22,5

Adadi – 100 nusxa

Buyurtma № 10

Bahosi kelishilgan narxda.

“Sadreddin Salim Buxoriy” MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Buxoro shahri
M.Iqbol ko’chasi 11-uy.